Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining –Investitsiya faoliyatito‘g‘risidagi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining –Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risidagi Qonuni
3. Kafolatlar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish choralari to‘g‘risidagi Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

Internet saytlar

http://old.uzbekenergo.uz/uz/news/archive/o-zbekenergo-dakda-bo-lib-o- tgan-matbuot-anjumani-to-g-risida/ - O‘zbekenergo aksiyadorlik jamiyatining rasmiy sayti.

http://www.toshet.uz/uz/content/faoliyat/muqobil_energiya_manbai/Toshkent elektr tarmog‘i korxonasining rasmiy sayti.

http://economics.unian.net/finance/-ekonomika-kitaya-s-nachala- goda-vyirosla-na-.html

http://m.proved-partner.ru/analytics/research/5-kak-izmenilasy- investitsionnaya-ppivlekatelynosty-rossii.html

https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Форфейтинг -

http://www.cfin.ru/investor/finance_meths.shtml

http://russia.mofcom.gov.cn//index.shtml

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORINING RIVOJLANISH AN’ANALARI VA ISTIQBOLLARI

Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Umuman olganda rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta faoliyati iqtisodiyotning strategik muhim tarmog‘i bo‘lib, uni rivojlantirish va boyitishda investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish, sug‘urta faoliyatining zamonaviy va yangi turlarini yaratish, sug‘urtalaovchilarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug‘urtani nazorat qilish shakllarini takomillashtirish bo‘yicha muhim ishlar olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar. Sug‘urta, daromad, harajat, sug‘urta polyusi, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urtalanuvchi, risk, havf-hatar, sug‘urta badali, sug‘urta mukofoti, foyda, zarar, qimmatli qog‘ozlar, moliya bozori, sug‘urta bozori.

Milliy sug‘urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taminlash, sug‘urta xizmatlarining talab yuqori bo‘lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4412-son qarori bilan mamlakatimizda sug‘urta kompaniyalari ustav fondining minimal miqdoriga qo‘yilgan talablar o‘zgardi.

Ma’lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo‘ladi hamda ular o‘rtasida tegishli tovarlar ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug‘urta bozorida ham sotuvchi va xaridor ishtirok etadi. Bu yerda potentsial sug‘urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o‘rinli savol tug‘ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potentsial sug‘urtalanuvchini to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtananuvchi, deb atasak katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug‘urta kompaniyalari

Published: 23.12.2024

Cite this article: Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna (2024). O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish an’analari va istiqbollari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1127

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug‘urta “mahsulotini” sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sug‘urtalovchilar bilan tegishli sug‘urta munosabatlariga kirishmagan shaxslar potentsial sug‘urtalanuvchilar deb ataladi. Endi, sug‘urtalovchilar haqida gapiradigan bo‘lsak, sug‘urtalovchi - bu mamlakat xududida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sug‘urtalash o‘zi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir. Ko‘rinib turibdiki, sug‘urta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo‘lishi va sug‘urtaga bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalar bilan shug‘ullanmasligi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, majburiy sug‘urta turlariga doir sug‘urta shartlari qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi. Ixtiyoriy sug‘urtalashga doir sug‘urta tariflarining miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Sug‘urta fondi mablag‘larining, faqat, shu fondni tashkil etishda qatnashgan sub’ektlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Sug‘urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar:

Sug‘urtalovchi – sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo‘g‘ini. O‘zbekiston Respublikasining "Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuniga ko‘ra, sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovoni (sug‘urta puli) to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug‘urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug‘urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo‘lishi mumkin (davlat sug‘urta tashkilotlari, aktsionerlik sug‘urta tashkilotlari hamda o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari). Sug‘urta faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar davlat organlarining tegishli litsenziyasiga ega bo‘lishi zarur.

Sug‘urtalanuvchi – sug‘urtalovchi bilan aniq sug‘urta munosabati o‘rnatgan va tegishli sug‘urta mukofotlarini to‘lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug‘urta vositachilari – sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo‘yicha vositachi sug‘urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko‘rsatgan xizmatlari uchun vositachi sug‘urtalanuvchidan emas, balki sug‘urta kompaniyasidan tegishli vositachilik haqini oladi.

Bozor munosabatlari takomillashuvi iqtisodiy infratuzilmaning qaror topishi bilan birgalikda kechadigan jarayondir. Sug‘urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug‘urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub’ektlari manfaatlarining himoyasini ham o‘z zimmasiga oladi.

Sug‘urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko‘rishi ehtimol bo‘lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo‘ldi hamda rivojlandi. Shunday anglanilgan zarurat - aniq sug‘urta manfaatlari negizida sug‘urta munosabatlari yuzaga keldi.

Bugungi kunda jahon bozori kon'yukturasidagi keskin o‘zgarishlar, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqdaki, buni e'tiborga olgan holda mamlkatimizda qabul qilingan 2021-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur'atlarini saqlab qolishda bir necha vazifalar belgilanib olindi. Shulardan biri sug‘urta va lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil

manba sifatida fond bozorini rivoj lantiri shdir Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot subyektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo‘lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo‘lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o‘ziga xos bo‘lgan maxsus xizmat bilan sug‘urta shug‘ullanadi. Sug‘urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug‘urta xizmatining ma'lum bir turiga yetarli darajada talab mavjud bo‘lganda, sug‘urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o‘tishi bilan bozorda sug‘urta xizmati ko‘rsatishturlarining ko‘payishi bilan, o‘z-o‘zidan tarif stavkalari kamayadi. Sug‘urta kompaniyalarining tashkiliy shakliga ko‘ra tavsifi Sug‘urta bozori muassasalarini va ularni faoliyatini o‘z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug‘urta bozori Amerika Qo‘shma shtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig‘iladigan sug‘urta tushumlarining 43 foizdan ortig‘i AQSh hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu yerda hayotni sug‘urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa.

Bugungi kunda mamlakatimiz milliy sug‘urta bozori nisbatan tez rivojlanayotgan bo‘lsada, bugungi kun jahon talablariga to‘liq javob bera olmaydi.

Ikkinchidan, sug‘urta xizmatidan foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo‘lgan aholining aksariyat qismi, sug‘urta haqida to‘liq ma'lumotga ega emas. Holbuki, bu sug‘urta turiga talabning ortishi sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalanuvchiga moliyaviy holatini yaxshilashda o‘zining salmoqli xissasini qo‘shadi.

Yuridik shaxslar sug‘urta qildirishi uchun, birinchi navbatda, ularga ishonch kerak. Jismoniy shaxslarga esa to‘g‘ri ma'lumot. Ma'lumotlar to‘g‘ri va to‘liq bo‘lishi ularni sug‘urtadan to‘g‘ri va maqsadli foydalanishga jalb qiladi.

Bu jarayonni amalga oshirish uchun sug‘urta bozoriga malakali mutaxasislar talab etiladi. Sug‘urta kompaniyalarida faoliyat yuritayotgan aksariyat hodimlar sug‘urta ishining mutaxassisi emas. Bir bo‘lim xodimi ikkinchi bo‘lim xodimining faoliyati, amalga oshirayotgan ishlari haqida ma'lumotga ega emas. Agentlar faoliyatida ham xuddi shunday muammo mavjud. Natijada sug‘urtalanmoqchi bo‘lgan shaxsga sug‘urta xizmatlari to‘g‘ri va to‘liq yetkazilmaganligi natijasida aholi to‘liq ma'lumotga ega bo‘lmasdan sug‘urtaga bo‘lgan talabning pasayishi va faoliyatga nisbatan ishonmaslik holatlari yuzaga kelmoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, quyidagi takliflarni berish mumkin:

Birinchidan mamlakatimiz sug‘urta bozorini rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazishning eng muhim va asosiy omillaridan biri bu, O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda o‘zaro sug‘urtani joriy etishdir va bunda davlatning tashabbuskorligidan foydalanish sug‘urta sohasidagi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Mamlakatda o‘zaro sug‘urtani joriy etish uchun avvalambor uning huquqiy ta'minotini yo‘lga qo‘yish, o‘zaro sug‘urtani rivojlantirish maqsadida ushbu sohaga taalluqli imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish zarur deb hisoblaymiz. Shunday holatda o‘zaro sug‘urta, sug‘urtaning alohida shakli sifatida tijorat sug‘urtasi bilan parallel ravishda rivojlanadi va ko‘p sonli potensial sug‘urtalanuvchilarni sug‘urtaga jalb etish barobarida fuqarolarning moddiy farovonligini oshishida, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchiliklarini kafolatlashda, korxona va tashkilotlarning barqaror faoliyat ko‘rsatishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, sug‘urta faoliyatini rivojlanishi uchun sug‘urta xizmatlarini keng ko‘lamda reklama qilish samarali natija beradi. Eng ommabop bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar: telegram, instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda sug‘urta xizmatlari va uning afzalliklari haqida ma'lumot berib turish. Misol uchun sug‘urta xizmatlari bo‘yicha

telegramda bir kanal ochib, bu haqida boshqa kanallarga ma'lumot tashlash orqali, aholini sug‘urta kanaliga a'zo qilish va sug‘urta faoliyatining yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor qilib turish mumkin. Ya'ni, aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini ortishini ta'minlash maqsadida sug‘urtaga nisbatan aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ya'ni sug‘urta to‘g‘risida qabul qilingan qonun, qarorlar to‘g‘risida va sug‘urta faoliyati qonun bilan himoyalanishi to‘g‘risida mijozlarga muntazam ravishda ma'lumotlar berib borish mumkin.

Uzoq muddatli sug‘urta turlariga quyidagi yetti xil sug‘urta yo‘nalishlari kiradi:

- ❖ hayotni va annuitentini sug‘urtalash;
- ❖ nikoh va farzand tavalludini sug‘urtalash;
- ❖ sog‘liq uzluksizligini sug‘urtalash;
- ❖ tonting sug‘urtasi;
- ❖ kapitalni qayta sug‘urtalash;
- ❖ pensiya sug‘urtasi;
- ❖ boshqa turdagi uzoq muddatli sug‘urtalar.

Yuqoridagi uzoq muddatli sug‘urta turlaridan boshqa xalqaro amaliyotda quyidagi sug‘urta yo‘nalishlari mavjud:

- ❖ baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash;
- ❖ tibbiy sug‘urta;
- ❖ avtomobillarni sug‘urtalash;
- ❖ temir yo‘l vagonlarini sug‘urtalash;
- ❖ samolyotlarni sug‘urtalash;
- ❖ kemalarni sug‘urtalash;
- ❖ transport yuklarini sug‘urtalash;
- ❖ mulkni yongin va tabiiy ofatlardan sug‘urtalash;
- ❖ transport xaydovchilarining fukarolik javobgarligini sug‘urtalash;
- ❖ kema egalarining fukarolik javobgarligini sug‘urtalash;
- ❖ umumiy javobgarlik sug‘urtasi;
- ❖ kredit sug‘urtasi;
- ❖ xodimlarni zararlar extimolidan sug‘urtalash;
- ❖ moliyaviy zararlarni sug‘urtalash;
- ❖ sud xarajatlari to‘lovlaridan sug‘urtalash va boshqalar.

Yuqoridagi sug‘urta turlari mohiyatini ochib berish uchun ularning qo‘llanish sohalari bilan tanishamiz.

Eng an'anaviy sug‘urta turlaridan bo‘lgan hayotning aralash sug‘urtasining bunday nomlanishiga sabab, unda 3 xil sug‘urta javobgarligi mujassamlashtirilganligidadir. Mazkur sug‘urta turida shartnomada ko‘rsatilgan yoshga yetib, oxirgi badal to‘langandan keyin kompaniya qoplama pulini to‘laydi. Qoplama ishsizlik va vafot hodisalarini chetlab o‘tmaydi. Hayotning aralash sug‘urta shartnomasi 1 oydan 6 oygacha, 1 yilga, 3 yilga, 5 yilga, 10, 15 va 20 yilga tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: “O‘zbekiston” nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining“Soliq Kodeksi” Rasmiy nashr-O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: “Adolat”, 2008 y. -692b.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев раислигида 2023 йил 8 сентябрь куни тармоқ ва ҳудудларда саноат маҳсулотлари ишлаб

чиқаришни янада ошириш чора-тадбирлари муҳокамаси бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилиши// https://president.uz/uz/lists/view/6649.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси, 2022 йил 20 декабрь, https://president.uz/uz/lists/view/5774.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY BARQAROR RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Maxmudov Sherali Xusanovich
PhD, dotsent v.b., Guliston davlat universiteti, Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti dekani
Sherxanov Iftixor Abdulrazzoqovich
Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich magistri

Barqaror rivojlanish maqsadlari mahalliy va milliy darajadagi taraqqiyotni rivojlantirish uchun ham muhimdir. Shuning uchun milliy va mahalliy hukumatlar asosiy rolni bajarishi kerak. Barcha insonlar, er va jamiyat uchun barqaror kelajakni yaratish ular o‘z majburiyatlarini belgilab olishlari kerak. O‘zbekiston Respublikasi BMT bilan hamkorlikda Barqaror rivojlanish maqsadlarIga erishish uchun amaliy ishlarni amalga oshirmoqda. Qashshoqlikni bartaraf etish, ta'lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik sohasida, shuningdek, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi qator muammolarni hal qilish bo‘yicha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Inson kapitali sifatini ta’minlash barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim omili sifatida, har qanday mamlakat hukumatining ustivor vazifalaridan biridir, shundan kelib chiqqan holda, har bir mamlakat yosh avlodning kelgusida jamiyatda munosib o‘rin egallashi va raqobatbardosh kadrga aylanishi, hayotda muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiluvchi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson va uning qobiliyatlari, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O‘zbekistonda ham inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki inson kapitalini rivojlantirish — innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi. Zamonaviy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, rivojlangan mamlakatlarida “bilimlar” iqtisodiyotining shakllanishi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi shaxsning mavqeini o‘zgartirishga, “rasmiy bilimlarning nomoddiy kapitalga” aylanishiga olib keladi. Shaxsning ijodiy salohiyatini faollashtirish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda inson kapitalining ahamiyatini oshirishga qaratilgan mehnatni tashkil etishning antropotsentrik modelini kuchaytirishga olib keladi.

O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat’iy davom ettirishini, mamlakatimiz “Inson qadri va manfaatlari uchun” degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgarilab borayotganligiga dunyo ahli guvoh bo‘lmoqda. Izchil davom etayotgan islohotlar natijasida va xalqning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017 yildan buyon kambag‘allik ikki barobarga kamayib, bu ko‘rsatkich 2030 yilgacha yana 7 foizga